



AXSIKENT ARXEOLOGIK MEROSINI MUZEYLASH TIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

Muzeyshunoslik kafedrasida o'qituvchisi

Alimov Umidjon Jasurdinovich

Annotatsiya: Mazkur maqolada Axsikentning Farg'ona vodiysi tarixida tutgan o'rni, uning qadimgi va o'rta asrlar davridagi siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy ahamiyati ilmiy manbalar va arxeologik tadqiqotlar asosida tahlil qilingan. Axsikentning Buyuk Ipak yo'li tizimidagi strategik o'rni, Dovon davlatining poytaxti sifatidagi faoliyati, shaharsozlik madaniyati, mudofaa inshootlari, suv ta'minoti tizimi, hammomlar va hunarmandchilik markazi sifatidagi xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, yodgorlikning arxeologik meros sifatidagi ahamiyati, uni saqlash, muhofaza qilish va muzeylashtirishning dolzarb masalalari ham ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari Axsikentning Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi va o'zbek davlatchiligi tarixini o'rganishda muhim ilmiy manba ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Axsikent, Farg'ona vodiysi, arxeologik meros, muzeylashtirish, Buyuk Ipak yo'li, Dovon davlati, shaharsozlik madaniyati, mudofaa devorlari, hunarmandchilik, suv inshootlari, o'rta asr shaharlari, madaniy turizm, arxeologiya, tarixiy yodgorliklar, madaniy merosni muhofaza qilish.

Qadimshunos olimlar tomonidan «Farg'ona Afrosiyobi» deya e'tirof etilgan Axsikent Farg'ona vodiysidagi eng yirik va muhim arxeologik yodgorliklardan biri hisoblanadi. Ushbu shahar xarobasi nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo tarixini o'rganishda muhim ilmiy manba sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Axsikent ko'p asrlar davomida Farg'ona vohasining siyosiy, iqtisodiy va madaniy



markazlaridan biri bo'lib xizmat qilgan hamda mintaqada shaharsozlik madaniyatining yuksak darajada rivojlanganligini namoyon etadi.

Ahsikentning tarixiy ahamiyati davlat darajasida ham e'tirof etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2016 yil 2 noyabr kuni Namangan viloyati saylovchilari vakillari bilan uchrashuvda: «Bu diyordagi mashhur Axsikent, Munchoqtepa, Ayritom, Mug'tepa kabi me'moriy yodgorliklar o'tmishda ushbu hududda o'ziga xos sivilizatsiya va boy madaniyat rivojlanganidan dalolat beradi», deya ta'kidlagan edi. Ushbu fikrlar Ahsikentning milliy madaniy meros tizimida tutgan o'rnini yanada yorqin namoyon etadi.

Bugungi kunda yosh avlod orasida Markaziy Osiyo hududida ilk davlatchilikning shakllanishi, qadimgi shaharlar tarixi, ajdodlarimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti hamda ularning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan hissasiga qiziqish tobora ortib bormoqda. Bu kabi savollarga javob topishda arxeologik yodgorliklar, xususan Axsikent muhim ilmiy manba vazifasini o'taydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Axsikentni o'rganish nafaqat tarixiy voqealarni tiklash, balki milliy o'zlikni anglash va tarixiy xotirani mustahkamlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, Axsikent t Farg'ona vodiysidagi ilk shahar madaniyatining shakllanishi va taraqqiyotida muhim o'rin tutgan. Arxeologik qazishmalar natijalari shaharda hunarmandchilik, metallurgiya, qurolsozlik, kulolchilik va savdo munosabatlari yuqori darajada rivojlanganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, shahar hududidan topilgan temirchilik ustaxonalari, metall mahsulotlari hamda me'moriy inshoot qoldiqlari Ahsikentning o'rta asrlardagi iqtisodiy qudratini tasdiqlaydi.

Axsikent toponimining kelib chiqishi ham ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Namangan muhandislik-iqtisodiyot instituti tadqiqotchisi Zamira Isaqovaning ma'lum qilishicha, «Axsikent» atamasi «Ahsining yurti» ma'nosini anglatadi. «Aksi» so'zi esa «Axzi» shaklidan kelib chiqqan deb hisoblanadi. Bu



haqda mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning Zafarnoma asarida ham ma'lumotlar uchraydi. Asarda qayd etilishicha, Xusrav I Anushirvon davrida Farg'ona hududini obod qilish maqsadida turli joylardan aholi ko'chirib keltirilgan va ular orasida Axzi nomli shaxs ham bo'lgan. Keyinchalik barpo etilgan manzilgoh uning nomi bilan atala boshlagani haqida rivoyatlar saqlangan.

Tarixiy manbalar va arxeologik tadqiqotlar Axsikentning nafaqat mahalliy, balki xalqaro ahamiyatga ega madaniy meros ob'ekti ekanligini ko'rsatadi. Uning UNESCO tomonidan muhofaza qilinayotgan madaniy meros ob'ektlari qatorida e'tirof etilishi mazkur yodgorlikning insoniyat sivilizatsiyasi tarixida tutgan o'rnini belgilab beradi. Shu sababli Ahsikent yodgorligini kompleks o'rganish, saqlash, konservatsiya qilish va muzeylashtirish bugungi kunda arxeologiya, muzeyshunoslik hamda madaniy merosni boshqarish sohalarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ayniqsa, Axsikentni zamonaviy muzeylashtirish konsepsiyalari asosida rivojlantirish, ochiq osmon ostidagi arxeologik muzey sifatida tashkil etish, raqamli texnologiyalar va virtual ekspozitsiyalardan foydalanish orqali uning ilmiy-ma'rifiy salohiyatini yanada oshirish mumkin. Bu esa bir tomondan milliy tarixni keng targ'ib qilishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan Farg'ona vodiysida madaniy turizmni rivojlantirish va yodgorlikning xalqaro nufuzini oshirishga zamin yaratadi.

Tilshunos olim F.Ishoqov "Aksi" so'zi hakas tilidagi "Agis" so'zining qisqarishidan kelib chiqqanini, ya'ni "Agis"-AGSi-Aksi-shakliga kelganini ta'kidlaydi. Rus olimlari M.N.Bogolyubov va D.I.Smirnovalar esa "Axsikat" so'zi Sug'd tilidan tarjima qilganda "xushikat" – "oq shahar" degan ma'noni anglatadi, deb yozganlar. Yozma manbalar va adabiyotlarda Axsikent "Aksi", "Axsikat", "Askatan", "eski Aksi", "yangi Aksi" deb yozib kelingan. Axsikent Farg'ona vodiysidagi qadimiy shahar bo'lib, Shahrison Daryo sathidan 50 metr balandlikda joylashgan 300 gektardan ortiq maydonni egallagan. Mashhur sayyoh geografik olim yoqut Hamaviyning (1179-1229) "Mo'jam al-buldon" ("mamlakatlar lug'ati")



asarida yunon tarixchilari Gerodotning (miloddan avvalgi V-asr) "Tarix" va Ptolomeyning (miloddan avvalgi III asr) "Kundaliklar" asarlarida Farg'onaning poytaxti "Askatan" deb tilga olingani eslatilgan. Xitoy sayyohi Chjon Syan (miloddan avvalgi II asr) o'z kundaliklarida O'rta Osiyoning Dovon (Davan) degan dehqonchilik yurti borligi, uning aholisi 300000 kishi bo'lib, 60000 qo'shinga egaligi, ular kamon va nayzalar bilan qurollangani va ot ustida jang kilishga mohir ekanliklari, sholi, g'alla, uzum ekilishi, zotdor otlari haqida yozib qoldirgan. Ma'lumki, mamlakatimizda Axsikentning o'rganilishi 1885 yildan boshlangan. Dastlab, bu erda Peterburg universitetining professori, taniqli arxeolog va sharqshunos N.Veselovskiy ish olib borgan. 1913 yilda I.Kastane tomonidan navbatdagi qazishma va tadqiq ishlari o'tkazilgan. 1939 yilda katta Farg'ona kanali qurilishi davrida professor M.Masson bu erda arxeologik razvedka ishlari bilan shug'ullandi. 1960 yildan esa O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi Yahyo G'ulomov boshchiligida mutaxassislar Axsikentda arxeologik qazishma ishlarini amalga oshirishdi.

1970-1980 yillarda arxeolog va tarixchi olimlar marhum y.Qosimov, I.Ahrorov, A Muhammadjonov, Mustaqillik yillariga kelib, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari nomzodi A. Anorboev Axsikentda ilmiy tadqiqot va qazishma ishlarini olib borishi natijasida ko'plab ilmiy maqolalar va risolalar chop etdi. Olim eski Axxi manzilgohi qadimgi Xitoy tarixiy manbalarida ko'rsatib o'tilgan Davan (Farg'ona) davlatining poytaxti bo'lganligini ilmiy jihatdan isbotlab berdi.

Manzilgohni qazib o'rgangan qadimshunos olimlar moddiy ashyoviy dalillar va eng ko'xna yozma Xitoy manbalariga tayangan holda shaharning paydo bo'lishini tahminan miloddan avvalgi III asrlarga to'g'ri kelishi ma'lumotini berganlar.

Axsikent Buyuk Ipak yo'lining muhim tarmoqlari kesishgan hududda joylashgan bo'lib, tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida Farg'ona vodiysining



siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi vazifasini bajargan. Arxeologik, yozma va numizmatik manbalar shaharning qadimgi va oʻrta asrlar davrida mintqa taraqqiyotida beqiyos ahamiyat kasb etganligini tasdiqlaydi. Ahsikent nafaqat Fargʻonaning maʼmuriy markazi, balki Markaziy Osiyo shaharsozlik madaniyatining yirik namunalaridan biri sifatida ham alohida oʻrin tutadi.

Bu haqda Zahiriddin Muhammad Bobur oʻzining mashhur Boburnoma asarida: «Fargʻonada Andijondin soʻngra mundin ulugʻroq qasaba yoʻqtur... Umarshayx Mirzo muni poytaxt qilib edi», deb yozadi. Mazkur taʼrifning oʻziyoq Axsikentning oʻz davridagi siyosiy nufuzi va iqtisodiy qudratini koʻrsatib beradi. Shuningdek, shaharning Temuriylar davrida ham muhim strategik markaz boʻlib qolganligiga dalolat qiladi.

Fargʻona haqidagi dastlabki ishonchli maʼlumotlar miloddan avvalgi II asrga oid boʻlib, ular Zhang Qianning Xitoy imperatori huzuriga taqdim etgan hisobotlarida uchraydi. Uning safarlari natijasida toʻplangan maʼlumotlar keyinchalik Sima Qianning Shiji va Ban Guning Hou Han Shu asarlarida oʻz aksini topgan. Mazkur manbalarda Fargʻona «Dayuan», uning markaziy shahri esa «Yuan-chen» nomi bilan tilga olinadi. Tadqiqotchilarning aksariyati mazkur shaharni aynan Ahsikent bilan bogʻlaydi.

Xitoy yilnomalarida Fargʻona hududida yetmishga yaqin shahar mavjudligi qayd etilgan boʻlib, ular ichida Axsikentning siyosiy va iqtisodiy markaz sifatida alohida ajralib turganligi taʼkidlanadi. Ayniqsa, shaharning mustahkam mudofaa tizimi haqidagi maʼlumotlar diqqatga sazovordir. Arxeologik tadqiqotlarga koʻra, miloddan avvalgi II–I asrlarda qurilgan tashqi mudofaa devorlari va burjlar oʻsha davr harbiy meʼmorchiligining yuksak namunasi hisoblanadi. Devorlarning umumiy balandligi ayrim joylarda 20 metrga yetgan boʻlib, burjlar parapet sathidan yana 5–6 metr yuqori koʻtarilgan. Bu kabi ulkan mudofaa inshootlari Fargʻona vodiysining boshqa shaharlarida deyarli uchramaydi. Shu jihatdan Ahsikent Markaziy Osiyo harbiy meʼmorchiligi tarixi uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.



Milodiy eraning dastlabki asrlariga kelib Fargʻona vodiysida sugʻorma dehqonchilik tizimining kengayishi, yangi yerlarning oʻzlashtirilishi va xalqaro savdo aloqalarining faollashuvi shahar madaniyatining jadal rivojlanishiga turtki berdi. Axsikent bu jarayonlarda markaziy oʻrin egallab, hunarmandchilik, metallurgiya, qurolsozlik, kulolchilik va savdo sohalarining yirik markaziga aylandi. Shahar aholisi mahalliy ishlab chiqarish bilan bir qatorda tashqi bozorlar uchun ham mahsulot tayyorlagan.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Dovon davlati qoʻshni Sogʻd, Baqtriya, Hindiston hamda Eron bilan faol iqtisodiy munosabatlar olib borgan. Antik davr geografi Claudius Ptolemy maʼlumotlariga koʻra, Buyuk Ipak yoʻlining shimoliy tarmogʻi Marv–Samarqand–Fargʻona yoʻnalishi orqali oʻtgan. Bu esa Axsikentning xalqaro savdo tizimidagi strategik ahamiyatini yanada oshirgan.

V–VII asrlarga kelib shaharda shaharsozlik madaniyati yangi bosqichga koʻtarildi. Arxeologik tadqiqotlar natijalari koʻp xonali turar joylar, hunarmandchilik ustaxonalari va jamoat binolarining keng qurilganligini koʻrsatadi. Bu davrda Fargʻona aholisi Buyuk Ipak yoʻli orqali Xitoy, Koreya, Yaponiya, Hindiston hamda Oʻrta Yer dengizi sohillaridagi mamlakatlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlantirgan. Ayniqsa, sugʻd va turk savdogarlari xalqaro savdo munosabatlarida muhim oʻrin tutgan.

Axsikentning muhandislik-infratuzilmasi ham oʻrta asrlar shaharsozligining yuksak darajasini namoyon etadi. Zahiriddin Muhammad Boburning qayd etishicha, «Aksi suvi Kosondin kelur». Arxeologik tadqiqotlar ushbu maʼlumotning tarixiy haqiqat ekanligini tasdiqladi. XX asrning 70–80-yillarida arxeologlar Yoqub Qosimov, Ibrohim Ahrorov va Abdulahad Muhammadjonov rahbarligida oʻtkazilgan tadqiqotlar natijasida Kosonsoydan shaharga yer osti orqali suv yetkazib bergan noyob gidrotexnik inshootlar aniqlandi. Pishiq gʻishtdan qurilgan ushbu tunnellar oʻrta asr muhandislik tafakkurining yuksak namunasi hisoblanadi.



Shahar hududida aniqlangan X–XII asrlarga oid hammom qoldiqlari ham ahsikentlik me'mor va muhandislarning yuqori malakasini ko'rsatadi. Hammomlar murakkab isitish tizimi, oqova suvlarni chiqarish tarmoqlari va sanitariya qoidalariga mos ravishda qurilgan. Devorlarga o'rnatilgan sopol quvurlar orqali issiq havo tarqatilgan bo'lib, bu tizim zamonaviy markazlashgan isitish tizimlarining ilk ko'rinishlaridan biri sifatida baholanadi. Tadqiqotchilar fikricha, mazkur hammomlar nafaqat gigienik, balki ma'lum darajada davolash vazifasini ham bajargan.

O'rta asrlarda Axsikent Markaziy Osiyoning yirik hunarmandchilik markazlaridan biriga aylangan. Arxeologik topilmalar shaharda temirchilik, misgarlik, qurolsozlik, kulolchilik, zargarlik va shishasozlik sohalari rivojlanganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, shisha ishlab chiqarish sohasida Ahsikent Afrosiyob, Poykend va Termiz kabi markazlar bilan tenglasha olgan. Mahalliy xomashyo zaxiralarining mavjudligi yuqori sifatli mahsulotlar tayyorlash imkonini bergan.

Arxeologik tadqiqotlar shaharning klassik sharqona shahar tuzilishiga ega bo'lganligini ko'rsatadi. U uch asosiy qismdan: ark, shahriston va rabotdan iborat bo'lgan. Ark qismida hukmdor qarorgohi va harbiy-ma'muriy inshootlar joylashgan bo'lsa, shahristonda aholi yashagan, masjidlar, madrasalar va bozorlar faoliyat ko'rsatgan. Rabot qismi esa tashqi savdo va karvon harakatining markazi sifatida xizmat qilgan.

Shu tariqa, tarixi miloddan avvalgi IV–III asrlargacha borib taqaladigan Ahsikent nafaqat Farg'ona vodiysining, balki butun Markaziy Osiyoning yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri bo'lgan. Uning ko'p qatlamli arxeologik merosi ilk davlatchilik, shaharsozlik, muhandislik, savdo va hunarmandchilik tarixi bo'yicha noyob ma'lumotlar manbai hisoblanadi. Bugungi kunda mazkur yodgorlikni kompleks o'rganish, konservatsiya qilish va muzeylashtirish orqali uning ilmiy-ma'rifiy salohiyatini oshirish, mahalliy va



xalqaro turizmni rivojlantirish hamda kelajak avlodlarga yetkazish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, Axsikentni ochiq osmon ostidagi arxeologik muzey sifatida rivojlantirish uning jahon madaniy merosidagi o'rnini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.-Toshkent: O'zbekiston, 2017.-71-75 betlar.
- 2.Anorboev A. Islomov U. Matboboev B. O'zbekiston tarixida qadimgi Farg'ona. – T.: "Fan". 2001. B.-36.
- 3.Anarbbaev A. Axsikent - stolisa drevney Fergani. –T.: Tafakkur, 2013 - S.29
- 4.Anorboev A. Daryo sohilidagi poytaxt.// Fan va turmush. 1988-№8. B.14-15
- 5.Abdulaxatov N., G'oziev T. Burxoniddin Marg'iloniy. –T.: Yangi avlod. 2015.-B.151
- 6.Zaxiriddin Muxammad Bobur. Boburnoma. – T.: "O'qituvchi" . 2008. B.-31
- 7.Mirsaydullaev M. Ikki buyuk Axsikatiylar.-Namangan, 2018